Toshkent
kimyo-texnologiya
instituti

# BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI

10 TENGSIZLIKNI QISQARTIRISH

**10.6.1.Sizning universitetingiz organ sifatida kamsituvchi bo'lmagan qabul siyosatiga egami yoki ochiq e'lon qilingan qabul qilishda tegishli ijobiy kamsitish siyosati mantiqini batafsil tushuntirib beradimi?**

O‘ZBEKİSTON RESPUBLİKASİ PREZİDENTİNİNG
QARORİ

# ALOHİDA TA’LİM EHTİYOJLARİ BO‘LGAN BOLALARGA TA’LİM-TARBİYA BERİSH TİZİMİNİ YANADA TAKOMİLLASHTİRİSH CHORA-TADBİRLARİ TO‘G‘RİSİDA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoniga muvofiq O‘zbekistonda inklyuziv ta’limni rivojlantirish, alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko‘rsatiladigan ta’lim xizmatlari sifatini yaxshilash maqsadida:

1. Quyidagilar:

2020 — 2025-yillarda xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi (keyingi o‘rinlarda — Konsepsiya) 1-ilovaga muvofiq;

2020 — 2025-yillarda xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasini 2020-2021-yillarda amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” (keyingi o‘rinlarda – “Yo‘l xaritasi”) 2-ilovaga muvofiq;

Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar ta’limini 2025-yilgacha rivojlantirishning maqsadli ko‘rsatkichlari (indikatorlari) 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Belgilansinki, Konsepsiya erishilgan natijalar, maqsadli ko‘rsatkichlar va tegishli davrga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlardan kelib chiqqan holda 2022-yildan boshlab har yili tasdiqlanadigan alohida “Yo‘l xaritasi” asosida bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

2. Xalq ta’limi vazirligi 2021-yildan boshlab har yili 1-dekabrga qadar o‘tayotgan yilning “Yo‘l xaritasi” bajarilishi yakunlarini batafsil o‘rganish asosida keyingi yil uchun “Yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqsin va tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

Vazirlar Mahkamasi “Yo‘l xaritalari” hamda maqsadli ko‘rsatkichlarning (indikatorlarning) bajarilishi ustidan doimiy monitoring olib borsin hamda yiliga bir marta uning natijalarini Hukumat rayosati majlislarida tanqidiy ko‘rib borsin.

3. Belgilab qo‘yilsinki, Konsepsiya ikki bosqichda amalga oshiriladi, jumladan:

a) 2020 — 2022-yillar davomida:

inklyuziv ta’lim tizimi sohasidagi normativ baza takomillashtiriladi;

inklyuziv ta’lim tizimi uchun malakali pedagog kadrlar tayyorlanadi, qayta tayyorlanadi va malakasi oshiriladi;

inklyuziv ta’lim joriy etilgan muassasalarning moddiy-texnika bazasi mustahkamlanadi, ular maxsus moslamalar (ko‘tarish qurilmasi, pandus, tutqich va boshqalar), zarur adabiyotlar, metodik qo‘llanmalar, turli kasblarga o‘qitish uchun uskuna va jihozlar bilan ta’minlanadi;

inklyuziv ta’lim sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalar joriy etiladi;

alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning bilim olish huquqi, inklyuziv o‘qitishning mazmun-mohiyatini tushuntirish orqali aholi o‘rtasida ijobiy ijtimoiy muhit shakllantiriladi;

alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni kamsitish, ularga salbiy muomalada bo‘lishning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshiriladi;

inklyuziv ta’lim tizimi tajriba-sinov tariqasida alohida ta’lim muassasalarining faoliyatiga joriy qilinadi;

b) 2023 — 2025-yillar davomida:

inklyuziv ta’lim tizimi bosqichma-bosqich boshqa umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida joriy qilinadi;

alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan har bir bolaning inklyuziv ta’lim olish huquqini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshiriladi;

inklyuziv ta’limda o‘qitish usullari takomillashtiriladi hamda ta’lim jarayoniga individuallashtirish tamoyillari bosqichma-bosqich joriy etiladi;

inklyuziv ta’lim jarayonida o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashga, ularning jismonan sog‘lom va baquvvat shakllanishiga qaratilgan choralar ko‘riladi;

o‘quvchilarning jismoniy va aqliy ehtiyojidan hamda ta’lim muassasalarining geografik joylashuvidan kelib chiqib alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat ta’lim muassasalari (maktab va maktab-internatlar) (keyingi o‘rinlarda — ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari) soni optimallashtiriladi.

4. Xalq ta’limi vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi hamda Moliya vazirligining:

a) 2021/2022 o‘quv yilida tajriba-sinov tariqasida:

shaharlarda hamda Toshkent shahrining tumanlarida joylashgan bittadan umumta’lim maktablarida inklyuziv ta’lim tizimini joriy qilish;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida joylashgan bittadan umumta’lim maktabida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun boshlang‘ich tayanch korreksion sinflarni ochish;

Qashqadaryo, Farg‘ona va Xorazm viloyatlarida joylashgan bittadan kasb-hunar maktabida ixtisoslashtirilgan

ta'lim muassasalarining 9-sinf bitiruvchilari hamda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan guruhlarni tashkil etish;

b) inklyuziv ta'lim tizimini joriy qilish, boshlang'ich tayanch korreksion sinflarni ochish va ixtisoslashtirilgan guruhlarni tashkil etish natijalarini hisobga olgan holda ijobiy tajribani respublikaning boshqa hududlariga bosqichma-bosqich tatbiq etish;

v) 2021/2022 o'quv yilidan boshlab:

ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida majburiy umumiy o'rta ta'limni 11 yillik (intellektual rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun (yordamchi) maktablar, maktab-internatlarda 9 yillik) muddatda amalga oshirish;

ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarining 10-11-sinf (intellektual rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun (yordamchi) maktablar, maktab-internatlarda 8-9-sinf) o'quvchilarini kasb-hunarga o'rgatish, ularning qiziqish va qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda kelajakda egallaydigan kasblari bo'yicha mehnat faoliyati bilan shug'ullanishlari uchun keng shart-sharoitlar yaratish maqsadida ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarining qisqartirilayotgan o'quv soatlari doirasida kasbga o'qitish kurslarini tashkil etish;

g) ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari bitiruvchilariga kasbga o'qitish kurslarida o'rgatilgan kasblar bo'yicha sertifikat berish to'g'risidagi takliflariga rozilik berilsin.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi kasbga o'qitish kurslarini tashkil etishda metodik yordam ko'rsatish, o'quv jarayonini samarali olib borish va malakali professor-o'qituvchilarni jalb etish uchun tegishli hududdagi professional ta'lim muassasalari hamda "Ishga marhamat" monomarkazlarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga biriktirsin.

5. Belgilab qo'yilsinki:

a) 2021/2022 o'quv yilidan boshlab:

boshlang'ich tayanch korreksion sinflarda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berish moslashtirilgan (adaptiv) o'quv dasturlari asosida amalga oshiriladi;

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim tizimi joriy qilingan va tayanch korreksion sinflar ochilgan umumta'lim maktablarida ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari shtatlarini bosqichma-bosqich maqbullashtirish hisobidan maxsus pedagog shtat birliklari ajratiladi;

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning salohiyatini rivojlantirish maqsadida inklyuziv ta'lim tizimi joriy qilingan umumta'lim maktablari tomonidan mazkur o'quvchilar uchun ular va ularning ota-onalari (qonuniy vakillari) ishtirokida individual o'quv dasturlari ishlab chiqilishi mumkin;

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga individual ta'lim dasturlarini o'zlashtirishda maxsus pedagoglar va tyutorlar (yordamchi pedagog xodimlar) yaqindan ko'maklashadi;

inklyuziv ta'lim tizimi joriy qilingan umumta'lim muassasalariga tyutor (yordamchi pedagog xodim) sifatida tegishli malakaga ega volontyorlar va oliy ta'lim muassasalarining pedagogika yo'nalishidagi yuqori kurs talabalari pedagogik amaliyot davrida ixtiyoriylik asosida jalb qilinadi;

inklyuziv ta'lim tizimi joriy qilingan va tayanch korreksion sinflar ochilgan umumta'lim maktablari Kuzatuv kengashi tarkibiga alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ota-onalaridan (ularning qonuniy vakillaridan) biri kiritiladi;

nogironligi bo'lgan shaxslarning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda professional ta'lim muassasalari uchun umumiy davlat granti asosida qabul ko'rsatkichlarining ikki foizgacha bo'lgan qismi ushbu shaxslarga ajratiladi;

o'quvchilarga uy sharoitida yakka tartibda ta'lim berayotgan o'qituvchilar ish haqlarini hisoblash Xalq ta'limi vazirligi hamda Moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan tartib bo'yicha amalga oshiriladi;

b) 2021-yil 1-yanvardan boshlab:

ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarining rahbar xodimlariga mehnatning alohida sharoitlari uchun har oyda to'lanadigan ustama haqi bazaviy tarif stavkasining 100 foizi miqdorida to'lanadi;

Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi "Mehribonlik" uylari respublika sog'lomlashtirish oromgohi rahbari bazaviy tarif stavkasi miqdori "Mehribonlik" uylarining tegishli rahbar xodimi bazaviy tarif stavkasining 90 foiziga, "Mehribonlik" uylari va bolalar shaharchalari psixologlari bazaviy tarif stavkasi miqdori umumta'lim maktablari psixologlari bazaviy tarif stavkasiga, "Mehribonlik" uylari va bolalar shaharchalari to'garak va musiqa rahbarlari, mehnat va trener yo'riqchisi bazaviy tarif stavkalari "Barkamol avlod" bolalar maktablarining to'garak rahbarlari bazaviy tarif stavkalariga tenglashtiriladi.

6. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi qoshida uning belgilangan shtat birliklari doirasida "Inklyuziv ta'lim laboratoriyasi" tashkil etilsin.

Inklyuziv ta'lim laboratoriyasining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilansin:

umumta'lim maktablarida inklyuziv ta'lim uchun shart-sharoitlar yaratish, inklyuziv ta'lim berishning sifati va samaradorligini aniqlash mezonlarini ishlab chiqish hamda ularning bajarilishini nazorat qilish;

inklyuziv ta'limning metodik ta'minotini (dasturlar, rahbar, pedagog va mutaxassislarga metodik tavsiyalar va boshqalarni) ishlab chiqish hamda takomillashtirib borish;

inklyuziv ta'limning barcha subyektlari uchun psixologik-pedagogik va ijtimoiy rivojlantirishga yo'naltirilgan

texnologiyalarni ishlab chiqish va takomillashtirib borish;

inklyuziv sharoitlarda ta’lim oluvchilar uchun psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash ishlarini tashkil qilish;

inklyuziv ta’lim bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni olib borish, ilg‘or xorijiy tajribani o‘rganish va amaliyotga tatbiq etish;

inklyuziv ta’lim tizimi joriy qilingan umumta’lim muassasalari, ularda ta’lim olayotgan o‘quvchilar to‘g‘risida ma’lumotlar bazasini yaratish va uni doimiy yangilab borish;

inklyuziv ta’limni rivojlantirish masalalari bo‘yicha ilmiy konferensiyalar va seminarlarni tashkil etish va o‘tkazish.

7. Xalq ta’limi vazirligi, O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi hamda Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi ikki oy muddatda quyidagilarni nazarda tutuvchi chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqsin va amalga oshirilishini ta’minlasin:

alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning ta’lim olish huquqi va erkinligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek bolalarning madaniyat, san’at, sport va boshqa yo‘nalishlarda erishgan yutuqlari to‘g‘risida targ‘ibot tadbirlarini o‘tkazish;

inklyuziv ta’lim-tarbiyani matbuot va ijtimoiy tarmoqlarda keng targ‘ib etish;

alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish masalalari bo‘yicha ota-onalar uchun onlayn o‘quv kurslarini tashkil etish va video ma’ruzalarni ijtimoiy tarmoqlarda joylashtirish.

8. Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Xalq ta’limi vazirligi, Moliya vazirligi boshqa vazirlik va idoralar bilan birgalikda 2021-yil 1-sentabrga qadar:

pedagogik ta’lim sohasidagi ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklarining tegishli o‘quv dasturlariga inklyuziv ta’lim metodikasi bo‘yicha mavzular kiritilishini ta’minlasin;

alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar (shaxslar) to‘siqsiz harakatlanishi uchun umumiy o‘rta, professional va oliy ta’lim muassasalarining o‘quv binolari hamda talabalar turar joylarida zarur sharoitlar (binolarning kirish qismiga panduslar, tutqichlar va boshqalar) yaratsin;

o‘quv jarayonini tashkil etishda alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishda alohida masofaviy o‘qitish elementlaridan (onlayn o‘quv darslari, elektron ta’lim resurslari) keng foydalanilishini ta’minlasin.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-fevraldagi “Yetim bolalar va ota-onasining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4185-son qarorining 2-bandi uchinchi xatboshidan “rahbar xodimlari va” so‘zlari chiqarib tashlansin.

Belgilansinki, mazkur o‘zgartirish 2021-yil 1-yanvardan kuchga kiradi.

10. Xalq ta’limi vazirligi boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda bir oy muddatda o‘zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

11. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi A.A. Abduvaxitov va O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari B.A. Musayev zimmasiga yuklansin.

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent sh.,
2020-yil 13-oktabr,
PQ-4860-son

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son qaroriga
1-ILOVA

## 2020 — 2025-yillarda xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish KONSEPSİYASİ

### 1-bob. Umumiy qoidalar

1. 2020 — 2025-yillarda xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi (keyingi o‘rinlarda — Konsepsiya) alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni o‘qitish uchun inklyuziv ta’lim tizimini tashkil etish, ularning ta’lim olish huquqini kafolatlash va ta’minlash maqsadida ishlab chiqilgan.

2. Konsepsiya O‘zbekiston Respublikasida inklyuziv ta’limni rivojlantirishning maqsadlari, vazifalari, ustuvor yo‘nalishlari, o‘rta va uzoq muddatli istiqboldagi bosqichlarini belgilaydi hamda inklyuziv ta’limni rivojlantirishga yo‘naltirilgan dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo‘ladi.

### 2-bob. O‘zbekistonda inklyuziv ta’limning joriy holati va mavjud muammolari

3. Bugungi kunda respublika bo‘yicha jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun jami 86 ta ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarda (keyingi o‘rinlarda — ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari) 21,2 ming nafar, 21 ta sanatoriy turidagi maktab-internatlarda 6,1 ming nafar o‘quvchilar ta’lim-tarbiya oladi. Shuningdek, uzoq muddat davolanishga muhtoj bo‘lgan 13,3 ming nafar o‘quvchilar uyda yakka tartibda o‘qitiladi.

2014 — 2016-yillarda Yevropa Ittifoqi bilan hamkorlikda “O‘zbekistonda alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta’lim” loyihasi amalga oshirildi. Loyiha doirasida:

respublikaning 5 ta hududida tajriba-sinov maydonchalari tashkil etildi;

150 nafardan ortiq tibbiy-psixologik-pedagogik komissiya va 1,3 ming nafardan ortiq pedagog xodimlar

inklyuziv ta’lim xizmatlariga o‘qitildi;

pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo‘yicha ta’lim muassasalarining o‘quv rejalariga ta’lim tizimiga inklyuziv amaliyotni tatbiq etishga doir 3 ta o‘qitish moduli kiritildi;

2 ming nafardan ortiq alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar va ularning ota-onalariga inklyuziv ta’lim xizmatlari tashkil etildi;

Toshkent, Samarqand, Namangan, Xorazm va Surxondaryo viloyatlarida 5 ta tajriba-resurs markazi hamda 15 ta tajriba maktablari tashkil etilib, ularga 800 nafardan ortiq bolalar qamrab olindi.

Inklyuziv ta’lim tizimini joriy qilish bo‘yicha qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Mazkur hujjatlarda jamiyatimizning bir bo‘lagi bo‘lgan maxsus yordamga muhtoj bolalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, ularga ta’lim-tarbiya berish, ularning sog‘lom bolalar qatoridan o‘rin olib o‘z qobiliyati, imkoniyatlarini ko‘rsata olishiga, ma’naviy kamol topishiga qaratilgan chora-tadbirlar belgilab berilgan.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi “Xalq ta’limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3931-son qarorida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning ijtimoiy kafolatlarini ta’minlovchi chora-tadbirlar samaradorligini yanada oshirish, ularning ta’lim-tarbiya (shu jumladan, inklyuziv ta’lim-tarbiya) olishiga xizmat qiladigan moslashuv muhitini yaratish bo‘yicha alohida vazifalar qayd etib o‘tilgan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ko‘rsatiladigan ta’lim xizmatlari sifatini yaxshilash bo‘yicha:

alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar ta’lim oladigan ta’lim muassasalari binolariga qo‘yiladigan talablarni ishlab chiqish va tasdiqlash;

alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar o‘qitiladigan ta’lim muassasalarini zarur adabiyotlar, metodik qo‘llanmalar, turli kasblarga o‘qitish uchun uskuna va jihozlar bilan ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni o‘qitish uchun inklyuziv ta’lim tizimini tashkil etish, umumta’lim muassasalarini maxsus moslamalar (ko‘tarish qurilmasi, pandus, tutqich va boshqalar), shuningdek tegishli kadrlar (maxsus pedagog, bolalarni ruhiy-pedagogik kuzatish bo‘yicha mutaxassislar) bilan ta’minlash;

jamoatchilik o‘rtasida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning bilim olish huquqi, inklyuziv o‘qitishning mazmun-mohiyati haqida tushuntirish ishlarini olib borish;

o‘quvchilarning jismoniy va aqliy talab-ehtiyojidan va ta’lim muassasalarining geografik joylashuvidan kelib chiqqan holda alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar o‘qitiladigan ta’lim muassasalarini optimallashtirish;

alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning moslashishi va integratsiyasi uchun maktab-internatlarni bosqichma-bosqich maxsus jihozlar bilan ta’minlash;

alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan har bir bolaning inklyuziv ta’lim olish huquqini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish kabi vazifalar belgilangan.

Bundan tashqari, “Zamonaviy maktab”larni qurishda ushbu maktablarda alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni o‘qitish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, ular uchun maxsus infratuzilma bo‘lishi va jihozlanishini ta’minlash maqsadida inklyuziv ta’limni tashkil etish bo‘yicha “Zamonaviy maktab”ga qo‘yiladigan me’yoriy talablar loyihasi ishlab chiqildi.

Kelgusida “Zamonaviy maktab”larni ushbu talablar asosida qurish va rekonstruksiya qilish rejalashtirilgan.

Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni sog‘lom bolalar qatorida umumta’lim maktablarida o‘qitish amaliyotini rivojlantirish maqsadida ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalarida ta’lim olayotgan o‘quvchilarning umumta’lim maktablariga integratsiyalashuvi (uyg‘unlashtirgan holda ta’lim-tarbiya berish) tajribasi qo‘llanilishi natijasida so‘ngi yillarda 500 nafarga yaqin alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilar umumiy o‘rta ta’lim maktablariga qaytarildi.

Hozirgi kunda 3,2 mingdan ortiq umumiy o‘rta ta’lim maktablarida 13 ming nafarga yaqin o‘quvchilar inklyuziv ta’lim bilan qamrab olingan.

4. Shu bilan birga, Xalq ta’limi tizimida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni o‘qitish uchun inklyuziv ta’lim tizimini tashkil etish, ularning ta’lim olishga bo‘lgan teng huquqlarini ta’minlash borasida ayrim bo‘shliq va kamchiliklar mavjud, shu jumladan:

a) inklyuziv ta’limni tashkil etish sohasida:

alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar o‘qitiladigan ayrim ta’lim muassasalarida ular uchun to‘siqsiz muhit va imkoniyatlar yaratilmagan;

alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar o‘qitiladigan ta’lim muassasalari zarur adabiyotlar, metodik qo‘llanmalar, turli kasblarga o‘qitishga mo‘ljallangan uskuna va jihozlar bilan to‘liq ta’minlanmagan;

alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning bilim olish huquqi, inklyuziv ta’lim tizimining mazmun-mohiyati haqida jamoatchilik o‘rtasida tushuntirish ishlarini olib borish yo‘lga qo‘yilmaganligi natijasida ota-onalar alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan farzandlarini umumta’lim muassasalarida o‘qitishi mumkinligi haqida yetarli ma’lumotga ega emas;

alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar ta’lim-tarbiyasi uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan beshta tashabbus amaliyotga tatbiq etilmagan;

alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni inklyuziv ta’limga jalb qilish bilan bog‘liq muammolarni hal etish masalalariga mahalliy ijroiya hokimiyati organlari tomonidan yetarli e’tibor qaratilmayapti;

alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish jarayonining murakkabligi va shaffof emasligi turli shakldagi korrupsiya holatlariga sabab bo‘lmoqda;

b) kadrlarni tayyorlash sohasida:

umumta’lim muassasalarida inklyuziv ta’lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash talab etilmoqda;

pedagogik kadrlarning kasbiy tayyorgarligi hamda kasbiy malaka darajasi inklyuziv ta’lim uchun yetarli emasligi natijasida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishda qator muammolar yuzaga kelmoqda;

pedagogika yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalari o‘quv dasturlariga inklyuziv ta’lim berish metodikasiga oid fanlar kiritilmagan;

pedagogika va metodika fanlariga oid darsliklarda inklyuziv ta’lim dasturlari kiritilmaganligi, shuningdek bo‘lajak pedagoglarning alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar jalb qilingan ta’lim muassasalarida amaliyot o‘tamayotganligi ularning kasbiy tayyorgarlik sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda;

umumta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlari inklyuziv ta’lim haqida yetarli ma’lumotlarga ega emasligi inklyuziv ta’limni joriy etishning samarasizligiga olib kelmoqda;

malaka oshirish va qayta tayyorlash ta’lim muassasalarida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar ta’limi bo‘yicha malaka oshirish kurslari tashkil etilmagan, ular faoliyatiga inklyuziv ta’lim bo‘yicha zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari joriy qilinmagan;

v) o‘quv jarayonini tashkil etish sohasida:

umumta’lim muassasalarida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga inklyuziv ta’lim berish metodikasi ishlab chiqilmagan;

alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga inklyuziv ta’lim berishning sifati va samaradorligini aniqlash mezonlari ishlab chiqilmagan;

alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar ta’lim oladigan ta’lim muassasalari zarur maxsus o‘quv adabiyotlari va metodik-qo‘llanmalar bilan yetarli darajada ta’minlanmagan;

d) inklyuziv ta’lim tizimini moliyalashtirish sohasida:

inklyuziv ta’limni rivojlantirish uchun yetarli mablag‘larni samarali va shaffof tizim asosida taqsimlash va foydalanish talab etilmoqda;

alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun o‘quv jihozlari va materiallarini yangilash, maktab binolarida inklyuziv ta’limni joriy etishga qaratilgan sharoitlar yaratish uchun davlat budjetidan ta’lim muassasalariga yetarli mablag‘lar yo‘naltirilmayapti.

## 3-bob. Inklyuziv ta’lim tizimini rivojlantirishning maqsadlari va ustuvor yo‘nalishlari

5. Inklyuziv ta’lim tizimini rivojlantirishning maqsadi — ta’lim olish uchun teng imkoniyatni ta’minlash va barcha bolalarning individual xususiyatlaridan, oldingi ta’lim yutuqlaridan, tili, madaniyati, ota-onalarning ijtimoiy va iqtisodiy holatidan qat’iy nazar ta’limda muvaffaqiyatga erishishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdir.

6. Inklyuziv ta’lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari quyidagilardir:

a) inklyuziv ta’lim tizimi uchun pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish:

pedagogika yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalarida inklyuziv ta’lim dasturlarini joriy etish, inklyuziv ta’lim metodikasiga oid o‘quv materiallarini takomillashtirish;

inklyuziv ta’lim berishning zamonaviy nazariyalarini o‘zlashtirish, inklyuziv ta’lim tizimida faoliyat olib borayotgan pedagoglarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazlarini tashkil etish hamda ta’lim berishda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar asoslarini egallashga sharoit yaratish;

o‘qituvchi, o‘quvchi, ota-ona, jamoat tashkilotlari mutaxassislari, keng jamoatchilik uchun inklyuziv ta’lim bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmualar va ommabop nashrlar yaratish;

inklyuziv ta’lim tizimi joriy etilgan umumta’lim muassasalarida o‘qituvchilarning sifat tarkibini, xususan magistrlik darajasiga ega bo‘lgan pedagoglar sonini bosqichma-bosqich oshirish;

inklyuziv ta’limni joriy etishda avvalo chekka hududlarda joylashgan, o‘quvchilar soni kam bo‘lgan umumta’lim maktablaridagi alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni o‘qitishga e’tibor qaratish;

inklyuziv ta’lim sifatini mustaqil baholash tizimini shakllantirish va alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun qo‘shimcha pedagogik ta’lim xizmatlarini yo‘lga qo‘yish;

xalq ta’limi sohasida rahbar kadrlar tayyorlash bo‘yicha standartlashtirilgan dastur ishlab chiqish, ularga inklyuziv ta’limini amalga oshirish mexanizmlarini ko‘zda tutuvchi o‘quv kurslarini kiritish;

masofaviy kurslarni yo‘lga qo‘ygan holda, inklyuziv ta’lim tizimi joriy qilingan umumta’lim muassasalarida faoliyat olib boruvchi pedagoglarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimi samaradorligini kuchaytirish va qamrovini kengaytirish;

pedagogika yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalarining “Maxsus pedagogika” ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha qabul

parametrlarini oshirish, Xalq ta’limi vazirligi tavsiyasi asosida pedagog xodimlarga ehtiyoji katta bo‘lgan chekka hududlardagi abituriyentlar uchun maqsadli qabul ko‘rsatkichlarini belgilash mexanizmini joriy etish;

inklyuziv ta’lim tizimi joriy etilgan umumta’lim muassasalarida yosh o‘qituvchilarni, ularning xizmat mavqeyi o‘sishini hisobga olgan holda, kasbiy qo‘llab-quvvatlash va hamkorlikda ishlash mexanizmini takomillashtirish;

alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga inklyuziv ta’lim-tarbiya berishda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash yuzasidan pedagog xodimlar uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish;

A. Avloniy nomidagi Xalq ta’limi tizimi rahbar va mutaxassis xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti o‘quv dasturlariga inklyuziv ta’lim-tarbiyaga oid maxsus o‘quv dasturlari va mashg‘ulotlarini nazarda tutuvchi o‘zgartirishlar kiritish orqali ta’lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish;

b) inklyuziv ta’limda o‘qitish usullarini takomillashtirish, mazkur jarayonga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish:

alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan har bir bolaning inklyuziv ta’lim olishiga bo‘lgan huquqini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar belgilash;

alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni kamsitish, ularga nisbatan shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomalada bo‘lishning oldini olishga qaratilgan mexanizmlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish;

alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni erta aniqlash va qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish;

bolalarning ehtiyojlarini inobatga olgan holda sifatli ta’lim olishi uchun teng imkoniyatlarga ega bo‘lishini hamda qulaylikni ta’minlash bo‘yicha davlat kafolatlarining amalga oshirilishini ta’minlovchi tashkiliy-boshqaruv mexanizmlarini yaratish;

alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni inklyuziv ta’lim tizimi joriy qilingan umumiy o‘rta va professional ta’lim muassasalariga yuborish uchun asos bo‘luvchi tibbiy ko‘rsatmalar ro‘yxatini ishlab chiqish va tasdiqlash;

hududlar imkoniyatlarini inobatga olgan holda inklyuziv ta’limni rivojlantirish holati va tendensiyalari monitoringini olib borish;

har bir bolaga o‘zining shaxsiy tempiga mos ravishda rivojlanish huquqini ta’minlash;

alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ulardagi aqliy yoki jismoniy nuqsonlarning ifodalanganlik darajasidan kelib chiqqan holda umumta’lim maktabida tegishli bilimlarni olishiga sharoit yaratish;

inklyuziv ta’lim jarayonida o‘quvchilarda o‘qishga sog‘lom, kuchli va ta’sirchan motivatsiyani shakllantirish hamda kasb tanlash, kasbiy o‘sishini mustaqil rejalashtirish, zamonaviy kasblarni egallash qobiliyatini rivojlantirish;

inklyuziv ta’lim dasturlari asosida zamonaviy darsliklar, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etgan holda multimedia ilovalarini yaratish;

alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni kasb-hunarga o‘qitishni takomillashtirish va ushbu yo‘nalishlarda qisqa muddatli kurslarni tashkil etish;

inklyuziv ta’limning rivojlanishini monitoring qilish hamda amalga oshirilayotgan ishlar natijalarini yoritib borish;

v) inklyuziv ta’lim jarayonida o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash, bolaning jismonan sog‘lom va baquvvat shakllanishiga erishish:

inklyuziv ta’lim muassasalarida o‘quvchilar uchun sog‘lom ovqatlanish tamoyillarini ommalashtirish;

alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun sport to‘garaklarini tashkil qilish;

fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari tomonidan ota-onalar o‘rtasida inklyuziv ta’lim tizimi to‘g‘risida tushuntirish ishlarini olib borish;

rivojlangan mamlakatlarning ilg‘or tajribasini o‘rgangan holda inklyuziv ta’lim tizimi joriy qilingan ta’lim muassasalarida o‘quvchilar o‘rtasida zo‘ravonlik (bulling)ning oldini olishga qaratilgan dasturlarni joriy etish;

g) alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ko‘rsatiladigan ta’lim xizmatlari sifatini yaxshilash:

alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar ta’lim oladigan ta’lim muassasalari binolariga qo‘yiladigan talablarni ishlab chiqish va tasdiqlash;

alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar o‘qitiladigan ta’lim muassasalarini zarur adabiyotlar, metodik qo‘llanmalar, turli kasblarga o‘qitishga mo‘ljallangan uskuna va jihozlar bilan ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

d) inklyuziv ta’lim sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish:

barcha inklyuziv ta’lim tizimi joriy qilingan ta’lim muassasalarini ma’lumotlarni uzatish bo‘yicha yagona tarmoqqa birlashtirish;

ta’lim muassasalarini inklyuziv ta’limga jalb qilingan o‘quvchilar uchun maxsus jihozlangan kompyuter texnikasi, interaktiv doska, eshitish moslamalari va boshqa jihozlar bilan ta’minlash;

davlat-xususiy sheriklik asosida inklyuziv ta’lim jarayonini avtomatlashtirish bo‘yicha axborot tizimini joriy etish, alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun darslik va metodik materiallarning elektron shakllarini eduportal.uz portalida joylashtirish va muntazam yangilab borish;

inklyuziv ta’limga jalb qilingan bolalar uchun mavjud darslik va o‘quv-uslubiy adabiyotlarni elektron shaklga

o‘tkazish;

inklyuziv ta’lim jarayoni uchun multimedia mahsulotlarini ishlab chiqish va ularni qo‘llash jarayonini tizimli tashkil etish;

e) inklyuziv ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ularni budjetdan moliyalashtirish samaradorligini oshirish:

ilg‘or xalqaro tajribani hisobga olgan holda inklyuziv ta’lim joriy etilgan muassasalardagi qurilish, rekonstruksiya qilish va kapital ta’mirlash ishlarida ilg‘or texnologiyalar va muhandislik yechimlariga tayanish;

xalqaro tajribalardan kelib chiqqan holda, “Zamonaviy maktab” davlat dasturi doirasida umumta’lim maktablari uchun inklyuziv ta’lim sharoitlarini hisobga olgan holda qurilish-ta’mirlash ishlarini amalga oshirish;

inklyuziv ta’lim tizimi joriy qilingan umumta’lim muassasalarining o‘quv xonalari va laboratoriyalarini zamonaviy mebel, jihozlar, o‘quv-uslubiy materiallar, kompyuter va multimedia texnikalari, videokuzatuv tizimlari bilan jihozlash;

davlat-xususiy sheriklik asosida inklyuziv ta’lim tarmog‘ini rivojlantirish hisobiga inklyuziv ta’lim tizimida raqobat muhitini shakllantirish;

nodavlat umumta’lim maktablarida inklyuziv ta’lim tizimini joriy qilish amaliyotini kengaytirish;

j) inklyuziv ta’limga jalb qilingan alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning ta’lim-tarbiyasi uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotga tatbiq etish:

“Barkamol avlod” bolalar maktablari to‘garaklarida inklyuziv ta’lim ishtirokchilarining qamrovini oshirish;

alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni madaniyat va san’at muassasalariga keng jalb etish;

alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni jismoniy tarbiya va sportga jalb etish;

alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar o‘rtasida kompyuter texnologiyalari va Internetdan samarali foydalanishni yo‘lga qo‘yish;

alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar ma’naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish;

alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchi-qizlarning kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirish;

alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning madaniyat, san’at, sport va boshqa yo‘nalishlarda erishgan yutuqlari to‘g‘risida targ‘ibot tadbirlarini o‘tkazish.

## 4-bob. Konsepsiyani amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar

7. Konsepsiya doirasida belgilangan vazifalarni bajarish orqali 2020 — 2025-yillarda xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirishda quyidagi ko‘rsatkichlarga erishish nazarda tutiladi:

alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan shaxslarning rivojlanishi, reabilitatsiyasi, jamiyatga integratsiyalashuvida inklyuziv ta’limning strategik omil sifatidagi roli tasdiqlanadi;

alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning ta’limiy muhiti yaxlitligi mustahkamlanadi, ularning jamiyatga integratsiyasi uchun zarur sharoitlar ta’minlanadi;

davlat, jamiyat, shaxsning inklyuziv ta’lim sohasidagi manfaatlarini muvofiqlashtirish mexanizmlari yaratiladi;

inklyuziv ta’lim tizimining umumiy qulayligi, uzluksizligi, ta’lim sifati, shuningdek o‘quvchilarning rivojlanish darajasi, xususiyatlariga moslashuvchanligi va variativligiga erishiladi;

inklyuziv ta’lim sohasidagi xalqaro munosabatlar doirasida o‘zaro hamkorlik aloqalari mustahkamlanadi;

o‘quvchilar ta’limiy ehtiyojlarning o‘ziga xosligini inobatga olgan holda sifatli ta’lim olishi uchun ular davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi;

inklyuziv ta’limni bosqichma-bosqich joriy etish orqali alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari optimallashtiriladi, ularda ta’lim olayotgan o‘quvchilarning teng huquqli jamiyat a’zosi sifatida umumta’lim muassasalarida bilim olishi ta’minlanadi;

pedagogik yo‘nalishdagi oliy ta’lim muassasalarida inklyuziv ta’lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yiladi;

inklyuziv ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi yaxshilanadi;

inklyuziv ta’lim muassasalarining Internet tarmog‘iga to‘liq ulanishi ta’minlanadi;

inklyuziv ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni qabul qilish va boshqa ta’lim muassasalariga o‘tkazish uchun davlat xizmatlarini ko‘rsatish mexanizmi joriy etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son qaroriga

2-ILOVA

## 2020 — 2025-yillarda xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasini 2020-2021-yillarda amalga oshirish bo‘yicha

“YO‘L XARITASI”

| T/r | Tadbirlarning nomlanishi | Amalga oshirish mexanizmi | Moliyalashtirish manbai | Ijro muddatlari | Mas’ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| **I. Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berish sohasidagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish** | | | | | |
| 1 | Umumta’lim muassasalarida inklyuziv ta’lim tizimini rivojlantirish, jumladan:<br>Umumta’lim muassasalarida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga inklyuziv ta’lim berish to‘g‘risidagi nizomni ishlab chiqish va tasdiqlash;<br>alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni inklyuziv ta’lim tizimi joriy qilingan umumiy o‘rta va professional ta’lim muassasalariga yuborishga imkon beruvchi tibbiy ko‘rsatmalar ro‘yxati�i ishlab chiqish va tasdiqlash;<br>alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni erta aniqlash va qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish;<br>xalq ta’limi tizimidagi tibbiy-psixologik-pedagogik komissiyaning alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni o‘qitish, tarbiyalash va sog‘lomlashtirishga qaratilgan vazifalarini qayta ko‘rib chiqish hamda uning faoliyatini xalqaro talablarga moslashtirish;<br>alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalariga qabul qilish tartibini soddalashtirish. | Vazirlar Mahkamasining qarori | — | 2021-yil 1-mayga qadar | Xalq ta’limi vazirligi *(Sh. Shermatov)*, Sog‘liqni saqlash vazirligi *(A. Shadmanov)*, Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi *(U. Tashkenbayev)*, Moliya vazirligi *(T. Ishmetov)*, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi *(N. Xusanov)*, manfaatdor vazirliklar va idoralar |
| 2 | Oliy ta’lim muassasalarining pedagogika yo‘nalishidagi yuqori kurs talabalarini pedagogik amaliyot davrida ixtiyoriylik asosida tyutor (yordamchi pedagog xodim) sifatida inklyuziv ta’lim tizimi joriy qilingan umumta’lim muassasalariga biriktirish tartibini ishlab chiqish va tasdiqlash.<br>Inklyuziv ta’lim tizimi joriy etilgan umumta’lim muassasalariga tyutor | Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi hamda Xalq ta’limi vazirligining qo‘shma buyrug‘i | — | 2021-yil 1-yanvarga qadar | Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi *(I. Madjidov)*, Xalq ta’limi vazirligi *(Sh. Shermatov)*, manfaatdor vazirliklar va idoralar |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | (yordamchi pedagog xodim) sifatida ixtiyoriylik asosida tegishli malakaga ega volontyorlarni jalb qilish. | | | | |
| 3 | Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun davlat ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari (maktablar, maktab-internatlar) (keyingi o‘rinlarda — ixtisosl�shtirilgan ta’lim muassasalari) rahbar xodimlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida nizomni ishlab chiqish. | Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi hamda Xalq ta’limi vazirligining qo‘shma buyrug‘i | — | 2021-yil 1-yanvarga qadar | Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi *(U. Tashkenbayev)*, Xalq ta’limi vazirligi *(Sh. Shermatov)*, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi *(N. Xusanov)* |
| 4 | Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun to‘siqsiz muhit va imkoniyatlarni yaratish maqsadida ular o‘qiyotgan ta’lim muassasalarining binolari va jihozlariga qo‘yiladigan talablarni ishlab chiqish va tasdiqlash. | Idoraviy hujjat | — | 2021 yil 1-martga qadar | Qurilish vazirligi *(B. Zokirov)*, Xalq ta’limi vazirligi *(Sh. Shermatov)*, Favqulodda vaziyatlar vazirligi *(A. Qo‘ldoshev)*, manfaatdor vazirliklar va idoralar |
| 5 | Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari o‘quvchilari uchun kasbga o‘qitish kurslarini tashkil etish va sertifikat berish tartibini ishlab chiqish. | Vazirlar Mahkamasining qarori | — | 2021-yil 1-iyunga qadar | Xalq ta’limi vazirligi *(Sh. Shermatov)*, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi *(I. Madjidov)*, Sog‘liqni saqlash vazirligi *(A. Shadmanov)*, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi *(N. Xusanov)* |
| 6 | X�zmatchilarning asosiy lavozimlari va ishchilar kasblari klassifikatoriga maxsus pedagog lavozimini kiritish. | Vazirlar Mahkamasining qarori | — | 2021-yil 1-mayga qadar | Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi *(N. Xusanov)*, Xalq ta’limi vazirligi *(Sh. Shermatov)*, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi *(I. Madjidov)*, Sog‘liqni saqlash vazirligi *(A. Shadmanov)* |
| 7 | Toshkent shahridagi ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari o‘quvchilarining ovqatlanishini autsorsing shartlarida tashkil etish to‘g‘risidagi nizomni ishlab | Vazirlar Mahkamasining qarori | — | 2021-yil 1-mayga qadar | Xalq ta’limi vazirligi *(Sh. Shermatov)*, Sog‘liqni saqlash vazirligi *(A. Shadmanov)*, Moliya vazirligi *(T. Ishmetov)* |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | chiqish va tasdiqlash. | | | | |
| 8 | Davlat umumta'lim muassasalarining inklyuziv va tayanch korreksion sinflarida hamda kasb-hunar maktablarning ixtisoslashtirilgan guruhlarida ishlaydigan pedagog kadrlar va tibbiyot xodimlarining mansab yo'riqnomasi va kasbiy standartlarini qayta ko'rib chiqish hamda ularga inklyuziv ta'limni joriy qilishga oid vazifalarni kiritish. | Mansab yo'riqnomasi va kasbiy standart | — | 2021-yil 1-martga qadar | Xalq ta'limi vazirligi *(Sh. Shermatov)*, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi *(I. Madjidov)*, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi *(N. Xusanov)* |
| 9 | Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatorida "Defektologiya" ta'lim yo'nalishi o'rniga "Maxsus pedagogika" ta'lim yo'nalishini kiritish. | Vazirlar Mahkamasining qarori | — | 2021-yil 1-martga qadar | Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi *(I. Madjidov)*, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi *(A. Ortiqov)*, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi *(N. Xusanov)* |
| 1 | O'quvchilarga uyda yakka tartibda ta'lim berayotgan o'qituvchilar ish haqlarini hisoblash metodikasini ishlab chiqish va tasdiqlash. | Xalq ta'limi vazirligi va Moliya vazirligining qo'shma buyrug'i | — | 2021-yil 1-yanvarga qadar | Xalq ta'limi vazirligi *(Sh. Shermatov)*, Moliya vazirligi *(T. Ishmetov)* |
| 1 | Voyaga yetmagan bolalarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish institutini yanada takomillashtirish. Bunda, shu jumladan:<br>voyaga yetmagan bolalarning huquqlari buzilishini oldini olishga qaratilgan mexanizmlarni joriy qilish;<br>voyaga yetmagan bolalarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga doir yagona davlat siyosatini olib borish;<br>voyaga yetmagan bolalarning huquqlarini ta'minlashga qaratilgan mexanizmlarni kuchaytirish va ularni monitoring qilish tartibini takomillashtirish;<br>voyaga yetmagan | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori | — | 2020-yil 1-dekabrga qadar | Bola huquqlari bo'yicha vakil *(A. Yunusova)*, Bosh prokuratura *(S. Ortiqova)*, Xalq ta'limi vazirligi *(Sh. Shermatov)*, Maktabgacha ta'lim vazirligi *(A. Shin)*, Sog'liqni saqlash vazirligi *(A. Shadmanov)*, Ichki ishlar vazirligi *(P. Bobojonov)*, manfaatdor vazirlik va idoralar |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | bolalarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda xalqaro standartlarni joriy qilish. | | | | |
| **II. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash** | | | | | |
| 1 | Boshlang'ich tayanch korreksion sinflarda o'qitiladigan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun namunaviy adaptiv ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, ularni keng jamoatchilik muhokamasiga qo'yish va tasdiqlash. | Tashkiliy chora-tadbirlar | — | 2021-yil 1-mayga qadar | Xalq ta'limi vazirligi *(Sh. Shermatov)*, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi *(I. Madjidov)* |
| 1 | Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ta'lim oladigan ta'lim muassasalarini maxsus o'quv adabiyotlari va metodik-qo'llanmalar bilan ta'minlash. | Tashkiliy chora-tadbirlar | Ajratilgan davlat budjeti mablag'lari doirasida | 2021-yil 1-avgustga qadar | Xalq ta'limi vazirligi *(Sh. Shermatov)*, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi *(I. Madjidov)*, Moliya vazirligi *(T. Ishmetov)* |
| 1 | Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari rahbar va pedagog xodimlarini attestatsiyadan o'tkazish. | Tashkiliy chora-tadbirlar | — | 2021-yil 1-mayga qadar | Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi *(U. Tashkenbayev)*, Xalq ta'limi vazirligi *(Sh. Shermatov)* |
| 1 | Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga inklyuziv ta'lim-tarbiya berishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash yuzasidan pedagog xodimlar uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqish. | Uslubiy qo'llanmalar | — | 2021-yil 1-martga qadar | Xalq ta'limi vazirligi *(Sh. Shermatov)*, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi *(I. Madjidov)* |
| 1 | A. Avloniy nomidagi Xalq ta'limi tizimi rahbar va mutaxassis xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti o'quv dasturlariga inklyuziv ta'lim-tarbiyaga oid maxsus o'quv mashg'ulotlarini nazarda tutuvchi o'zgartirishlar kiritish orqali ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish. | Tashkiliy chora-tadbirlar | — | 2021-yil 1-yanvarga qadar | Xalq ta'limi vazirligi *(Sh. Shermatov)*, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi *(I. Madjidov)* |
| 1 | Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ta'lim oladigan ta'lim muassasalari rahbarlari va pedagog xodimlarining malakasini oshirish. | Jadval asosida | — | Doimiy ravishda | Xalq ta'limi vazirligi *(Sh. Shermatov)* |
| 1 | Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar | Tashkiliy chora-tadbirlar | — | 2020/2021 o'quv yili | Xalq ta'limi vazirligi *(Sh. Shermatov)*, |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | ta'lim oladigan ta'lim muassasalarini malakali mutaxassislar bilan ta'minlash. | | | davomida | Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi *(N. Xusanov)* |
| 1 | Kasbga o'qitish kurslari tashkil etiladigan ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarini malakali kadrlar va zarur jihozlar bilan ta'minlash. | Tashkiliy chora-tadbirlar | Mahalliy budjet mablag'lari | 2020/2021 o'quv yili davomida | Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, Xalq ta'limi vazirligi *(Sh. Shermatov)*, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi *(I. Madjidov)* |
| **III. Inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini yaxshilash** | | | | | |
| 2 | Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarining kirish yo'laklari, yotoqxonalari, o'quv va dam olish xonalari, oshxona hamda muassasaning boshqa muhim joylariga videokuzatuv moslamalarini o'rnatish. | Tashkiliy chora-tadbirlar | Mahalliy budjet mablag'lari | 2021-yil 1-sentabrga qadar | Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, Xalq ta'limi vazirligi *(Sh. Shermatov)*, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi *(Sh. Sadikov)* |
| 2 | Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni kamsitish, ularga nisbatan shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomalada bo'lishning oldini olishga qaratilgan mexanizmlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish. | Tashkiliy chora-tadbirlar | — | 2021-yil 1-sentabrga qadar | Yoshlar ishlari agentligi *(A. Sagdullayev)*, Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi *(R. Mamatov)*, Xalq ta'limi vazirligi *(Sh. Shermatov)*, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi *(M. Xodjimatov)*, Bosh prokuratura *(S. Ortiqova)*, Ichki ishlar vazirligi *(Sh. Sobirov)* |
| 2 | Ta'lim muassasalarini bitirgan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni ish bilan ta'minlash. | Tashkiliy chora-tadbirlar | — | 2020-2021-yillar davomida | Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi *(N. Xusanov)*, Yoshlar ishlari agentligi *(A. Sagdullayev)*, Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi *(R. Mamatov)*, Qoraqalpog'iston |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari |
| 2 | Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning ta’lim olish huquqi va erkinligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek bolalarning madaniyat, san’at, sport va boshqa yo‘nalishlarda erishgan yutuqlari to‘g‘risida targ‘ibot tadbirlarini o‘tkazish.<br>Inklyuziv ta’lim-tarbiyani matbuot va ijtimoiy tarmoqlarda keng targ‘ib etish. | Ijtimoiy reklama va roliklar, tele- va radio eshittirishlar, maqolalar | — | Doimiy ravishda | MTRK *(A. Xadjayev)*, O‘zA *(A. Ko‘chimov)*, Xalq ta’limi vazirligi *(Sh. Shermatov)*, Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi *(R. Mamatov)*, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi *(M. Xodjimatov)* |
| 2 | Manfaatdor vazirlik va idoralarning mutaxassislari hamda inklyuziv ta’limning bevosita ishtirokchilarini jalb qilgan holda inklyuziv ta’lim muammolariga bag‘ishlangan seminarlar va anjumanlar o‘tkazish. | Grafik asosida | — | Doimiy ravishda | Xalq ta’limi vazirligi *(Sh. Shermatov)*, manfaatdor vazirlik va idoralar |
| 2 | Inklyuziv ta’lim bo‘yicha ijobiy xorijiy tajribalarni o‘rganish va xalqaro aloqalarni yo‘lga qo‘yish. | Xorijiy mamlakatlar konferensiyalarida ishtirok etish, kompleks chora-tadbirlar | — | 2020-2021-yillar davomida | Xalq ta’limi vazirligi *(Sh. Shermatov)*, manfaatdor vazirliklar va idoralar |
| 2 | Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish masalalari bo‘yicha ota-onalar uchun onlayn o‘quv kurslarini tashkil etish va video ma’ruzalarni Xalq ta’limi vazirligining veb-saytida joylashtirish. | Tashkiliy chora-tadbirlar | — | 2020-2021-yillar davomida | Xalq ta’limi vazirligi *(Sh. Shermatov)* |
| 2 | Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga umumta’lim maktablarida qo‘shimcha ta’lim berishga qaratilgan ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha taklif kiritish. | Vazirlar Mahkamasiga tahliliy ma’lumotnoma kiritish | — | 2021-yil 1-yanvar | Xalq ta’limi vazirligi *(Sh. Shermatov)*, Moliya vazirligi *(T. Ishmetov)* |
| 2 | Xorijiy mutaxassislar tomonidan ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalarida ta’lim olayotgan o‘quvchilarga beg‘araz (xayriya) tibbiy yordam ko‘rsatilishini tashkil | Tashkiliy chora-tadbirlar | — | 2020/2021 o‘quv yili davomida | Sog‘liqni saqlash vazirligi *(A. Shadmanov)*, Xalq ta’limi vazirligi *(Sh. Shermatov)*, Investitsiyalar va tashqi |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | qilish hamda davolash va jarrohlik amaliyotlarini o‘tkazish. | | | | savdo vazirligi *(L. Kudratov)* |
| 2 | Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari o‘quvchilarining bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida musiqa, rassomchilik, tasviriy san’at, kulolchilik va boshqa to‘garaklarni ochish hamda ularni amaldagi me’yorga muvofiq musiqa asboblari bilan ta’minlash. | Tashkiliy chora-tadbirlar | Ijrochining budjetdan tashqari mablag‘lari | 2020/2021 o‘quv yili davomida | Madaniyat vazirligi *(O. Nazarbekov)*, Xalq ta’limi vazirligi *(Sh. Shermatov)*, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari |
| 3 | Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalarining sport zallarini sport jihozlari va anjomlari hamda davolash-sog‘lomlashtirish asbob-uskunalari bilan ta’minlash. | Tashkiliy chora-tadbirlar | Ijrochilarning budjetdan tashqari mablag‘lari | 2020/2021 o‘quv yili davomida | Jismoniy tarbiya va sport vazirligi *(D. Nabiyev)*, Sog‘liqni saqlash vazirligi *(A. Shadmanov)*, Xalq ta’limi vazirligi *(Sh. Shermatov)*, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari |
| 3 | Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalarida bittadan kompyuter sinf xonalarini zamonaviy kompyuterlar bilan ta’minlash, ularda o‘quvchilarni fikrlashga yo‘naltiradigan kompyuter o‘yinlari bazasini yaratish. | Tashkiliy chora-tadbirlar | Ijrochilarning budjetdan tashqari mablag‘lari | 2020/2021 o‘quv yili davomida | Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi *(Sh. Sadikov)*, Xalq ta’limi vazirligi *(Sh. Shermatov)*, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari |
| 3 | Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalarini o‘qishga tavsiya etilgan badiiy adabiyotlar bilan ta’minlash. | Tashkiliy chora-tadbirlar | Ijrochining budjetdan tashqari mablag‘lari | 2020/2021 o‘quv yili davomida | Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi *(A. Xodjayev)*, Yozuvchilar uyushmasi *(S. Sayid)*, Xalq ta’limi vazirligi *(Sh. Shermatov)*, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari |
| 3 | Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalarida kasb-hunar o‘rganayotgan qizlarning kasbiy ko‘nikmalarini | Tashkiliy chora-tadbirlar | Ijrochining budjetdan tashqari mablag‘lari | 2020/2021 o‘quv yili davomida | Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi *(R. Mamatov)*, |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | rivojlantirish maqsadida ushbu muassasalarni zarur miqdorda tikuv mashinalari va boshqa anjomlar bilan ta’minlash. | | | Xalq ta’limi vazirligi *(Sh. Shermatov)*, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari |

Izoh:

1. Tadbirlarni amalga oshirish shakli o‘zgarishi, ishlab chiqiladigan normativ-huquqiy va boshqa hujjatlar esa huquqiy munosabatlarni tartibga solish predmeti va sohasidan kelib chiqqan holda birlashtirilishi mumkin;

2. Ikki va undan ortiq bandlar birlashtirilganda ushbu bandlar uchun belgilangan eng kech muddat ijro muddati etib belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son qaroriga
3-ILOVA

**Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar ta’limini 2025-yilgacha rivojlantirishning**
MAQSADLI KO‘RSATKICHLARI (INDIKATORLARI)

| T/r | Maqsadli ko‘rsatkichlar | O‘lchov birligi | Yillik ko‘rsatkichlar | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | Joriy holat | 2021-yil | 2022-yil | 2023-yil | 2024-yil | 2025-yil |
| **I. Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning inklyuziv ta’limga kengroq qamrab olinishiga erishish** | | | | | | | | |
| **1.** | Inklyuziv ta’lim tizimi joriy qilingan umumiy o‘rta ta’lim muassasalari ulushi | Foizda (umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining umumiy soniga nisbatan) | 18,4 | 27 | 33 | 39 | 47 | 51 |
| **2.** | Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida inklyuziv ta’lim shartlarida ta’lim olayotgan alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar ulushi | Foizda (alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning umumiy soniga nisbatan) | 16,5 | 20 | 24 | 29 | 35 | 40 |
| **3.** | Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida korreksion sinflarda ta’lim olayotgan alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar ulushi | Foizda (alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning umumiy soniga nisbatan) | — | 0,4 | 1,3 | 2,2 | 3,1 | 4 |
| **4.** | Ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarida ta’lim olayotgan bolalar ulushi | Foizda (alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning umumiy soniga nisbatan) | 26,8 | 25 | 23 | 21 | 19 | 16 |
| **5.** | Uyda yakka tartibda ta’lim olayotgan alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar ulushi | Foizda (alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning umumiy soniga nisbatan) | 16,8 | 15 | 14 | 13 | 12 | 11 |
| **6.** | Musiqa, rassomchilik, tasviriy san’at, kulolchilik, jismoniy tarbiya va sport, kompyuter, tikuvchilik va boshqa maktabdan tashqari to‘garaklarga qatnashayotgan alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar ulushi | Foizda (alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning umumiy soniga nisbatan) | 3,9 | 5,8 | 6,8 | 7,9 | 9,9 | 12 |
| **II. Inklyuziv ta’lim tizimi uchun pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish** | | | | | | | | |
| **7.** | Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini malakali maxsus pedagoglar bilan ta’minlash | Nafar | — | 31 | 93 | 155 | 217 | 310 |
| **8.** | Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini malakali tyutorlar (yordamchi pedagog xodimlar) bilan ta’minlash | Nafar | — | 31 | 93 | 155 | 217 | 310 |
| **9.** | Maxsus pedagoglarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash | Foizda (maxsus pedagoglarning | 4,8 | 10 | 15 | 20 | 30 | 50 |

| | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | umumiy soniga nisbatan) | | | | | | |
| **10.** | Tyutorlarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash | Foizda (tyutorlarning umumiy soniga nisbatan) | 4,8 | 10 | 15 | 20 | 30 | 50 |
| **11.** | Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ta'lim olayotgan umumiy o'rta ta'lim muassasalarining rahbar kadrlari malakasini oshirish va qayta tayyorlash | Foizda (rahbar kadrlarning umumiy soniga nisbatan) | 15 | 26 | 38 | 50 | 60 | 75 |
| **12.** | Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarda o'rta maxsus ma'lumotli pedagog kadrlar ulushi | Foizda (pedagog kadrlarning umumiy soniga nisbatan) | 26,2 | 20 | 16 | 12 | 8 | 0 |
| **III. Inklyuziv ta'lim tizimi joriy qilingan umumta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash** | | | | | | | | |
| **13.** | Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun zarur maxsus jihozlar, o'quv adabiyotlar va metodik-qo'llanmalar bilan ta'minlangan umumiy o'rta ta'lim muassasalari ulushi | Foizda (umumiy o'rta ta'lim muassasalarining umumiy soniga nisbatan) | 2,4 | 5 | 8 | Tasdiqlanadigan reja asosida | | |
| **14.** | Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun zarur maxsus jihozlar bilan ta'minlangan maktabdan tashqari ta'lim muassasalari ulushi | Foizda (maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining umumiy soniga nisbatan) | 40,5 | 62 | 72 | 81 | 91 | 100 |
| **15.** | O'quv jarayonlarini tashkil etishda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun masofaviy o'qitish elementlarini joriy qilgan umumiy o'rta ta'lim muassasalari soni | Soni | — | 250 | 310 | 550 | 1 000 | 1 500 |
| **16.** | Tashkil etilgan inklyuziv ta'limning resurs markazlari soni | Soni | 5 | 14 | 55 | 87 | 144 | 203 |

*(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 14.10.2020-y., 07/20/4860/1383-son)*